

O'quvchilarda kreativ vazifalar hosil bo'lishining pedagogik – psixologik asoslari

Amaliy faoliyatini tadbqiq etishga yo'naltirilgan masalalarni yechishda o'quvchilar o'z imkoniyatlari haqidagi tasavurdan kelib chiqqan holda ish ko'radilar.

O'quvchining chuqur shaxsiy tarkibiga murojaat qilish jarayonida, avvalo, ularning ruhiy rivojlanish davrlariga nazar tashlamoq lozim. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, ijodiy faollikning shakllanishi muntazamlilik xarakteriga ega emas. U o'z taraqqiyotining ikkita nuqtasiga ega. Birinchi nuqta to'qqiz – o'n yoshli o'quvchilarning ijodiy faolligida ifodalanadi. Bu jarayonda, o'quvchilar kattalar bilan bevosita muloqot o'rnatadilar. Ular dastlab o'z harakatlarini so'zlar vositasida sharhlashga intiladilar. Bu o'rinda, o'quvchilarning nutqi aks – sado sifatida namoyon bo'ladi. Kattalarning nutqi esa, ularga samarali tarzda uyg'unlashadi. O'quvchilar rivojlanishining xuddi mana shu bosqichida refleksiyaning dastlabki qismlari vujudga keladi.

Ma'lumki, o'spirinlik yoshining boshlanishida, o'quvchilarning o'quv faoliyati o'zining yetakchilik mohiyatini yo'qotadi. Shu bilan bir qatorda, u o'quvchilarning asosiy faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. U intellektual, ijodiy, rivojlanishning asosiy mayli sifatida jarayon mazmuniga ta'sir ko'rsatishda davom etadi. Shuningdek, o'quvchilarning umumiy rivojlanishida uning o'rni va mohiyati muayyan tarzda o'zgarib turadi. Katta o'spirinlik yoshi faoliyatning mustaqil shakllarini egallash davri hisoblanadi. Bu davr intellektual rivojlanish, o'quvchilarning bilish faolligi oshishi hamda o'quv – biluv mayllarining barqarorlashish davridir.

Aynan, bu yosh o'quvchilarda refleksiylar rivojlanishining senzitiv bosqichidir. Bu davrda, o'quvchilarda o'z – o'zini anglashga bo'lgan qiziqish alohida namoyon bo'ladi, va ular navbatida, ularda o'z

o'quv faoliyatlarini takomillashtirish ehtiyoji tug'iladi. Bu esa, ularning mustaqil bilim olishga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi. Buning natijasida, o'quvchilar muayyan o'quv dasturidan tashqarida bo'lgan bilimlarni egallashga harakat qila boshlaydi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarning jadal ulg'ayish jarayonida ularning vujudi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar va hayotiy holatlar faollashadi. Bunday rivojlanish jarayonida o'quvchilarda xavotir hissi, yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanlik hamda turg'unlik vujudga keladi. Bunda o'quvchilarning ichki huquqiy holatlari qo'zg'aladi. Bu holatlar ushbu davrgacha yashirin ko'rinishga ega bo'ladi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarni kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda, ular kattalar mavqeida turishga da'vogarlik qiladilar. Ularni o'zlariga bola sifatida murojaat qilishga asoslangan munosabat qoniqtirmaydi. Ular kattalar bilan teng huquqlilikni hamda o'zlariga nisbatan hurmatni talab qiladilar.

Katta yoshdagi o'smirlar uchun kattalarga nisbatan yovqarash hissi mavjud. Ular kattalarga nisbatan raqiblar sifatida munosabatda bo'ladilar. Talablarga bo'ysunishdan qochish, istalmagan muloqotlardan uzoqlashish kabilar shular jumlasidandir.

O'smirlikdan dastlabki yoshlik davriga o'tish ын тырт—ын olti yoshlarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'smirlarda shakllanmagan mayllar hosil bo'la boshlaydi.

Erta yoshlik davrining asosiy psixologik ko'rsatkichi – o'zining ichki olamini kashf etishdir. Yoshlar uchun tashqi olam shaxsiy tajribani boyitish imkoniyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Buni o'quvchilarning o'zi bir markazga jamlaydi. O'zining ichki olamini ochish juda muhim, hayahonli hodisa bo'lib, u juda ko'plab his—hayajonlar va kechinmalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ba'zan o'quvchilarning ichki olami ularning tashqi xulq—atvoriga mos

kelmaydi. Bu esa, o'z-o'zini nazorat qilish muammosini dolzarblashtiradi.

Shu tariqa, mazkur yosh davrining ehtiyojlari sirasiga muloqot va uni tashkil etish usullarini egallash ehtiyojini kiritish mumkin. Refleksiyaning rivojlanishi o'ziga nisbatan ongli hamda tanqidiy munosabatning shakllanishi, mehnatga bo'lgan ehtiyoj, mehnatga layoqatlilik, mehnat ko'nikmalarini egallash, ishlab chiqarish faoliyatiga ishtirok etish, unga xos ijodiy ko'nikmalarni egallash ehtiyojini tarkib toptiradi. Bu esa, o'quvchilar uchun ruhiy asosni vujudga keltirish imkoniyatidir. Yangidan paydo bo'lgan markaziy shakllantiruvchi kuch kattalarga xos ichki mavqeini egallash vositasidir.

Izlanishlarimizning psixologik yo'nalishi didaktik maqsadga bo'ysunadi. Natijada, o'quvchilar shaxsining ijodiy shakllanishi uchun qulay sharoitlar aniqlanadi. Psixologik tahlillardan ko'zda tutilgan asosiy niyat, quyidagilarni aniqlashdan iborat: a) o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi jarayonida, ijod va ta'limning uyg'unlashuviga erishish; b) ijod qilish uchun xizmat qiladigan o'quv jarayonining yangi shakllarini ishlab chiqish; v) ijodiy faoliyatni boshqarish mexanizmlari, ularning mayllari, maqsadni tarkib topishi, hissiy – ixtiyoriy yo'nalishlarning ifodalanishini ta'minlash kabilar¹.

O'quvchilar shaxsining kreativ vazifalari shakllanishiga xizmat qiladigan psixologik – pedagogik shart – sharoitlarga insonparvarona pedagogika nuqtai nazaridan yondashish lozim. Bizning pedagogik kuzatishlarimiz erkin tarzda hosil qilingan pedagogik shart – sharoitlar hamda o'quvchilarni pedagogik – psixologik jihatdan qo'llab – quvvatlash natijasida, ularda ijodiy layoqatlarning tarkib topishi uchun

¹ Ғозиев Э. Психология: (Ёш даврлари психологияси): Пед. ин-тлари ва ун-тларнинг талабалари учун ўқув қўлланма.- Т.: Ўқитувчи, 1994. - 224 б.

qulay shart – sharoitlar yaratishdan iborat. Pedagogik – psixologik jihatdan qulay sharoitni vujudga keltirish natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

1) Har bir o'quvchining qimmatli jihatlarini tan olish; o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim – tarbiya berish va ularni rivojlantirish jarayonida ularni ijodiy faoliyatga yo'llaydi, agar o'qituvchi o'quvchilarning o'ziga xosligi va qimmatli jihatlarini tan olsa, ularning mavjud holati va hatti – harakatlaridan qat'i nazar ijodiy qobiliyatlarini qo'llab – quvvatlaydi. O'qituvchi har bir o'quvchiga ʻʻʻ kuchiga ishonishini muntazam ta'kidlab turishi lozim. Buning natijasida, o'quvchilar erkin tarzda faoliyat ko'rsatadi, o'ziga xosligini namoyon qiladi va ijod qilishga intiladi.

2) Tashqi bahodan xoli holatni vujudga keltirish. Bunda o'quvchilar o'zlari uchun qulay bo'lgan muhitni his qiladilar, Qachonki, o'quvchilar o'zi uchun qimmatli bo'lgan shaxsiy qadriyatlarga tayanmas ekanlar, bunday muhitda tashqi o'lchovlarga asoslangan baholash mavjud bo'ladi. Baholash o'quvchilarga tazyiq sifatida namoyon bo'lar ekan, himoyalovchi ta'sirlardan foydalanish ehtiyoji vujudga keladi. Biz tashqi baho asosida hukm chiqarar ekanmiz, o'quvchilar o'zining shaxsiy tajribasini ochiqroq namoyon qiladi. Shunda ularning voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlari yaqqol seziladi. O'quvchilarda kreativ vazifalarni shakllantirish uchun o'qituvchining munosabati ham aniq ifodalanishi kerak. Baholashning bosh manbai har bir o'quvchining ichki xususiyatidir.

3) Tuyg'ularni tushunish, eng muhimi, o'quvchilar shaxsini shunchaki qabul qilish emas, ularni tuyg'udosh sifatida anglash, olamga ularning nigou'i bilan qarash, ichki olamiga kirish, shu bilan bir qatorda ularni qabul qilish imkonini beradi. Bunday sharoitda, o'quvchilar o'zligini namoyon qiladi hamda ijodiy jihatdan rivojlanadi.

Ruhiy xavfsizlikdan tashqari o'quvchilar erkinlikni ham his qilishlari lozim. O'quvchilarning kreativ vazifalari qiziqarli faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin. Buning uchun, o'qituvchi o'quvchilarga o'z tafakkuridagi qiziqarli, sirli holatlari, hissiyotlari, fikrlarini bayon qilish imkoniyatini yaratishi lozim. O'quvchilar o'z qarashlarini ifodalashi uchun to'laqonli tarzda erkin bo'lishlari kerak. Bu o'quvchilarning ochiqligini ta'minlashga xizmat qilishibarobarida, kreativlik va ijodiy faollikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'quv – biluv jarayonida, kreativ vazifalarning rivojlanishi uchun quyidagi pedagogik shart – sharoitlar ommalashtirilishi lozim:

- 1) Qat'iy topshirilgan va nazorat qilinadigan vaziyatlardan farqli tarzda, shaxsga yo'naltirilgan erkin didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish;
- 2) O'quvchilarning kreativ vazifalarini kengaytirish va ularni muntazam rag'batlantirish;
- 3) O'quvchilarda kreativ vazifalarni shakllantirish va muntazam rivojlantirish usullari, strategiyalari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ta'lim amaliyotida qo'llash;
- 4) O'quvchilarni kreativ vazifalarni bajarishlari jarayonida o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish va erkin bo'lishlariga undash;
- 5) O'quvchilarning kuzatishlari, hissiyotlari, umumlashtirishlari, qiyoslashlari va bu jarayondagi hissiyotlarini qo'llab – quvvatlash;
- 6) Kattalar va ota – onalarni o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab – quvvatlashga undash kabilar.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarda kreativ vazifalarning shakllanishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi omillarni bartaraf etishga o'qituvchilar alohida jonbozlik bilan kirishishlari lozim:

- 1) Tavakkalchilikka asoslangan holda muvaffaqiyat qozonishga intilishlari;

- 2) Qarama – qarshilik, layoqatsizlik tufayli boshqalarga bosim o'tkazishlari;
- 3) Fantaziya va tasavvurga asoslangan tadqiqotchilik faoliyatini qo'llab – quvvatlamaslik;
- 4) Qat'iy gender qoliplar, o'g'il bolaga mumkin, qizlarga mumkin emas tarzida;
- 5) O'yin va o'quv jarayonlarini tabaqalashtirishlari;
- 6) Shaxsiy fikri va nuqtai nazarini o'zgartirishga tayyorliklari;
- 7) Mavqe, obro' – e'tibor oldida bosh egishlari kabilar.

Ruhshunoslar va pedagoglar o'quvchilar ijodiy faoliyatining intellektual hamda shaxsiy yo'nalishlarini farqlaydilar. Ijodkorlik jarayonida, intellektual ko'nikmalarning paydo bo'lishi, o'quvchilar faoliyatida yangi qirralarning tarkib topishi bilan bog'liq hodisadir.

Refleksiv faoliyatning muhim jihatlaridan biri, yangi ko'rinishdagi mustaqil fikrlashga asoslangan o'ziga xos qadriyatli – fikriy yondashuvlarning uyg'unlashuvidir. Refleksiv hamkorliksiz o'quvchilarda shaxsiy nuqtai nazarning ifodalanishi, shaxslararo muloqot jarayonida baholanishi, yangi bilimlarning bosqichma – bosqich idrok etilishi, boshqalarning qarashlari, jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy – madaniy, axloqiy me'yorlar, ularning refleksiv faoliyatini to'laqonli tarzda namoyon qilish mumkin emas.

Yu.N.Kulyutkin va G.S.Suxobskayalar insonning layoqatlilik darajasini o'rganar ekanlar, o'ziga refleksiv tarzda munosabatda bo'lish, shaxs ruhiyati ichki tuzilishining shakllanishi natijasi, kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar ifodasi ekanligini ta'kidlaydilar. Boshqalar bilan hamkorlik qilish natijasidagina inson ularning fikrlari va harakatlari mohiyatini anglab yetadi. Shunda u o'z faoliyatini boshqalar nuqtai nazarida turib baholaydi. U o'z – o'ziga refleksiv jihatdan munosabatda bo'lish imkoniyatidan voz kechadi.

Shundan kelibchiqqan holda aytish mumkinki, o'quvchilarda refleksiv jihatlarning rivojlanishi uchun o'quv dialogi va munozaralarining turli ko'rinishlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

**G. Djemuratova,
Nukus davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi.**